

O'ZBEKISTONDA CAPITAL BOZORINING RIVOJLANISHIDA XORIJ
TAJRIBASIDAN
FOYDALANISH

Fazilov Jamshid Ravshanovich

Bank-moliya akademiyasi magistranti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11212722>

Annotatsiya. Ushbu maqolada so'ngi yillarda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarni joriy etishda xalqaro miqyosda tajribali mutaxassislar va ekspertlarni jalb etgan holda mamlakatimizda iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishda yo'l xaritalari tuzish va rivojlanish konsepsiyalarini ishlab chiqilishi ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: Jahon banki, tijorat bank, investitsiya, iqtisodiyot, korxonalar, investitsiya fondlari, aksiyador, dividend, kapital bozor, moliya bozor, regulyator.

USE OF FOREIGN EXPERIENCE IN THE DEVELOPMENT OF THE CAPITAL
MARKET IN UZBEKISTAN

Abstract. In this article, it is shown that in the implementation of economic reforms implemented in our country in recent years, drawing up of road maps and development concepts for the implementation of economic reforms in our country with the involvement of internationally experienced specialists and experts.

Key words: World Bank, commercial bank, investment, economy, enterprises, investment funds, shareholder, dividend, capital market, financial market, regulator.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ЗАРУБЕЖНОГО ОПЫТА В РАЗВИТИИ РЫНКА КАПИТАЛА
В УЗБЕКИСТАНЕ

Аннотация. В данной статье показано составление дорожных карт и концепций развития реализации экономических реформ в нашей стране с привлечением специалистов и экспертов с международным опытом реализации экономических реформ, реализуемых в нашей стране в последние годы.

Ключевые слова: Всемирный банк, коммерческий банк, инвестиции, экономика, предприятия, инвестиционные фонды, акционер, дивиденды, рынок капитала, финансовый рынок, регулятор.

Kapital bozori, fond bozori — bo'sh turgan pul mablag'larini to'plash, ularni ssuda kapitaliga aylantirish, so'ngra uni ishlab chiqarish jarayonlari ishtirokchilari (banklar, korxonalar, firmalar, shuningdek, mamlakat aholisi) o'rtasida taqsimlash munosabatlari; qimmatli qog'ozlar, korxonalarning aksiyalari hamda davlat obligatsiyalari bilan oldi-sotdi operatsiyalari olib boriladi.

Pul kapitalining qayta taqsimlanishida ishtirok etadigan banklar, fond birjalari va moliya-kredit muassasalari majmuini o'z ichiga oladi. Kapital bozori pul bozori bilan birga iqtisodiyotning tarmoqlari va hukumat uchun tashqi kapital manbai hisoblanadi, ssuda kapitaliga talab va taklifni shakllantiradi.

Kapital bozori kompaniyalar va davlatning qisqa muddatli qimmatli qog'ozlari bilan ham shug'ullanadi. Kapital bozori qimmatli qog'ozlarni sotuvchilar va sotib oluvchilar, ixtisoslashgan fond brokerlari, savdo va tijorat banklari, markaziy bank, pensiya fondi, sug'urta kompaniyalari, investitsiya kompaniyalari, sanoat korxonalari, xorijiy investorlar, korxonalar, tashkilotlar ishtirok

etadilar. Manbalar va kiritilgan sohalariga qarab xalqaro va milliy Kapital bozorlari bor. Kapital bozor ikki asosiy vazifani bajaradi:

a) birlamchi bozor yoki yangi emissiya bozori. Bunda investitsiya va b. maqsadlar uchun zarur bo'ladigan kapital yangi aksiya, obligatsiya va qimmatli qog'ozlarni chiqarish hisobiga shakllantiriladi;

b) ikkilamchi bozor. Bunda mavjud qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalar olib boriladi.

Ikkilamchi bozor qimmatli qog'ozlarni sotuvchilardan haridorlar qo'liga o'tishni yengillashtiradi. Kapital bozori mamlakat moliya tizimida muhim o'rin egallab, aholining jamg'arilgan mablag'larini investitsiyalarga va investitsiyalarni qimmatli qog'ozlar portfeliga aylantirish mexanizmi bo'lib xizmat qiladi. O'zbekistonda 200 dan ortiq brokerlik idoralariga ega bo'lgan "Toshkent" fond birjasi 1994-yildan qimmatli qog'ozlar savdosi bilan shug'ullanadi.

Investitsiyalarni jalb etishda asosiy yo'l xaritasi hisoblanayotgan O'zbekiston Respublikasining 2035-yilgacha rivojlanish Strategiyasining konsepsiyasini, "Buyuk kelajak" Xalqaro nodavlat va notijorat tashkiloti tomonidan ko'rsatib berilgan ma'lumotlariga asosan 2020-yilda O'zbekistonda jami investitsiyalarni hajmi 2019- yilning shu davriga nisbatan 101,5 foizni yoki 6,6 mlrd. dollarni tashkil etdi. Bu ko'rsatkichlarga "O'zbekistonning 2035 yilgacha rivojlanishi konsepsiyasi" loyihasi to'g'ri yo'lga quyilganidan dalolat beradi. Albatta, bu hisob kitoblarga asoslangan kelajak rejalar va bu rivojlanishni ta'minlash ko'plab muammoli munosabatlarni hal qilish orqaligina amalga oshirilishi mumkin bo'ladi.

Iqtisodiyotni liberallashtirishda muhim qadamlardan biri sifatida amalga oshirilishi ko'zda tutilgan 2020-yilning 26-fevralida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Iqtisodiyotda davlat ulushini qisqartirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 1gi Qarori loyihasi internet tarmog'ida muhokamaga joylashtirildi. Ushbu qaror loyihasiga ko'ra O'zbekistonda 115ta davlat ulushi mavjud korxonalarni xususiy sektorga davlat ulushini sotish taklif etilgani ijobiy holat ammo bu kabi yirik miqdorda davlat ulushini realizatsiya qilishda ba'zi tizimli yondashuvlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq bo'ladi nazarimizda. Ya'ni Davlat ko'chmas mulki obyektlari belgilangan shartlarda ikki oy mobaynida (E-ijro auksion" yagona elektron savdo maydonchasida) sotilmagan taqdirda, bir so'm qiymatda sotishga taklif etilgan.

Albatta, bu kabi katta miqdordagi taklifni qondirish uchun investorlarda yetarli mablag'larning mavjud bo'lmalik ehtimoli yuqori shu boisdan, Investitsiya fondlari (IF) rolini oshirish ushbu fondlarni kapital jamlash va takliflarni qanoatlantirish uchun moliyaviy resurslarni jamlashlari va nisbatan kam moliyaviy resurslari mavjud investorlarni ham ushbu savdolarida qatnashish imkoniyatlarini yaratishlari zarur nazarimizda. Chunki, ikki oy davomida 1 so'm qiymatda olingan obyektlarga investitsiyalar kiritishda yana tijorat banklari resurslariga bo'lgan talabning oshib ketishi kuzatiladi, aslida esa ushbu subyektlar harakatda bo'lmagan moliyaviy resurslarni harakatlantirish orqali xususiylashtirsa nafaqat davlat ulushi xususiy sektorga o'tib ularni rentabelligi oshiriladi balki, pul massasini yuqori darajada oshirib yubormasdan jarayonni amalga oshirish imkoniyati paydo bo'ladi.

Buni amalga oshirishda IFlaridan keng foydalanish zarur bo'ladi ya'ni ushbu fondlar o'zlari uchun investitsion jozibador bo'lgan xususiylashtirilayotgan korxonalar haqida barcha ma'lumotlar (so'ngi yillarda foydasi, aksiyadorlar yoki ulushdorlarga berilgan dividendlar kelajakda investorlar uchun daromadlilik darajasi prognozlar va h.k.ni) bilan qisqacha axborot

manbasi sifatida ommani tanishtirish orqali, moliyaviy resurslarni jalb qilish va investitsiyalash imkoniyatlarini oshirish mumkin bo‘ladi nazarimizda.

Bundan tashqari, iqtisodiyotda davlat ulushini qisqartirishda kapital jalb qilish mexanizmining eng asosiy dastaklaridan biri bu kapital bozorining regulyatori hisoblanadi.

Albatta, O‘zbekistonda ushbu faoliyatni amalga oshirish tizimi so‘ngi yillarda ancha yaxshilandi ayniqsa Kapital bozorini rivojlantirish agentligining tashkil etilishi bu borada muhim qadam bo‘ldi desak mubolag‘a bo‘lmaydi nazarimizda. Shu boisdan dunyo mamlakatlarida bu borada qanday amaliyotlar joriy etilganligi va ularning samaradorligini o‘rganish va bu orqali O‘zbekiston uchun zaruriy xulosalarga kelishimizda muhim axborot manbai bo‘lsa ajab emas.

Yuqoridagilarni hisobga olgan holda kapital bozorini nazorat qilish va tartibga soluvchi tuzilma (regulyator) borasida dunyoning ba‘zi davlatlari tajribalarini ko‘rib chiqamiz.

AQSHda bir vaqtning o‘zida moliyaviy resurslar bozorini quyidagi 3 ta regulyator boshqaradi:

1. Qo‘shma shtatlar qimmatli qog‘ozlar va birjalar komissiyasi (SEC- The United States Securities and Exchange Commission);
2. Fyucherslar bilan savdolar qumitasi (Commodity Futures Trading Committee);
3. Milliy fyucherslar assosatsiyasi (National Futures Association)

Ammo AQSHda 3 ta regulyator mavjud bo‘lishiga qaramasdan qimmatli qog‘ozlar bo‘yicha yagona siyosat olib boruvchi bu Qo‘shma shtatlar qimmatli qog‘ozlar va birjalar komissiyasi (SEC) bo‘lib hisoblanadi.

Rossiya Federatsiyasida Rossiya Markaziy banki yagona regulyator hisoblanadi.

Kanadada Investitsiya sanoatini tartibga solish solish tashkiloti (IIROC Investment Industry Regulatory Organization of Canada);

Buyuk-britaniyada Moliyaviy xizmatlar idorasi (FSA — Financial Services Authority);


Germaniyada Federal nazorat idorasi (BaFin- The Federal Financial Supervisory Authority) Koreyada ikkita birinchisi, Davlat sektorida-Moliyaviy xizmatlar bo‘yicha komissiya (FSC-Korea’s Financial Services Commission), ikkinchisi, nodavlat sektorda-Korea moliyaviy investitsiyalar assosatsiyasi (KOFIA-Korea Financial Investment Association);

Ukrainada Qimmatli qog‘ozlar va fond bozori bo‘yicha milliy komissiya (NSSMC-National Securities and Stock Market Commission)

Qozog‘istonda Ostona xalqaro moliya markazi (AIFC-Astana International Financial Centre).

Yuqorida keltirganlarimiz dunyo mamlakatlarida moliya bozori regulyatori vazifasini asosan faqat bitta tashkilotga birlashtirilganligi (Janubiy Koreyadan tashqari), ushbu mamlakatlarda moliya bozorining rivojlanishi investitsion jarayonlarni amalga oshirishiga ijobiy hissa qo‘shganligi shubhasiz shu boisdan davlatlarda investitsion muhitga baho berishda muhim hisoblangan Jahon bankining Doing business indeksida aynan shu davlatlarning egallab turgan o‘rnini ko‘rib chiqamiz.

1-rasm



Jahon bankining “Doing business” 2020 reytingi

Yuqoridagi diagramma ma’lumotlarini hisobga olgan holda aytishimiz mumkinki, kapital bozorini tartibga solishda va investitsiyalarni jalb qilishni rag’batlantirishda bozor iqtisodiyotining liberal modeli yo’nalishini tanlagan Janubiy Koreya, AQSH va Buyuk Britaniya tajribalaridan keng foydalanish maqsadga muvofiq bo’ladi, bundan tashqari bozor sharoitlari va rivojlanish davrlari O’zbekiston bilan yaqin bo’lgan Qozog’iston va Rossiya Federatsiyasi tajribalarini ham o’rganib mamlakatimizda iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishda foydalanish maqsadga muvofiq bo’ladi nazarimizda. Chunki so’ngi yillarda yuqoridagi ikki davlatda amalga oshirilgan islohotlar, iqtisodiy jarayonlarni jadallashtirishda ijobiy natijalar berayotganligi dunyo hamjamiyatida e’tirof etilmoqda.

XULOSA

Hozirgi kunda dunyo mamlakatlari moliya bozoridagi munosabatlarni tartibga solish va nazorat qilishda turli yo’llardan foydalanilgan holda amalga oshiriladi. Fikrimizcha ulardan moliya bozorini davlat organi sifatida yagona nazorat qiluvchi organ (bitta regulyator) ning mavjud bo’lishi eng samarali yo’l bo’ladi nazarimizda, chunki bunda nazorat qilish, istiqbollarni belgilash, rivojlantirish va shunga muvofiq huquqiy bazani shakllantirish bitta tizimda birlashsagina eng optimal natijalarga erishish mumkin bo’ladi. Bundan tashqari kapital bozorini tartibga solishda qabul qilingan va qabul qilinayotgan huquqiy bazani ham soddalashtirish, tartiblashtirish va jahon standartlariga moslashtirish talab etiladi. Buning uchun albatta so’ngi yillarda kapital bozorini rivojlantirish agentligi “Kapital bozorining yagona kodeksi” 3 ni amaliyotga tatbiq etish choralarini ko’rayotganligidan xabarimiz bor, bu albatta kapital bozorini tartibga solish, investorlar huquqlarini himoya qilish va yangi investorlarni iqtisodiyotimizga kapital kiritishini oshirishda muhim ahamiyat kasb etishi shubhasiz.

REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 17-yanvardagi "Kapital bozorini qo'llab-quvvatlashning samarali mexanizmlarini joriy etishga doir qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-90-son Qarori. <https://lex.uz/docs/-5825745>
2. Rongwu Zhang, Wenqiang Fu, Tong Lu. Capital market opening and corporate environmental performance: Empirical evidence from China. // Finance Research Letters, Volume 53, May 2023.
3. Alikulov A. T., O'rinov K. O'ZBEKISTONDA KAPITAL BOZORI RIVOJLANISHINING ISTIQBOLLARI //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2022. – T. 2. – №. 6. – C. 690-695.<https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S1544612322007632>